



MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALAR BOG`LANGAN NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA O`YINLI TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH

Muzaffarova Xayitgul Nesibovna

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti katta o'qituvchisi

Qudratov Golib

Maxsus pedagogika, Defektologiya

(Logopediya) mutaxassisligi 2- kurs magistri

Annotasiya: *Maqolada maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning nutqiy faoliyatida kuzatiladigan talaffuz kamchiliklari, lug`atining qashshoqligi, grammatik qurilishining shakllanmaganligi va tafakkurining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va bu kamchiliklarni bartaraf etishda o'yinning ta'siri, o'yinni tashkil qilish va takomillashtirish bolaning jismoniy faolligiga ta'sir ko'rsatib, bolaning nutqiy va jismoniy jihatdan sog'lom o'sishiga imkon yaratishi haqidagi fikrlar bayon qilingan.*

Kalit so'zlar. *Aqliy, ma'naviy – ahloqiy, jismoniy, jamiyat, ijtimoiy hayot, sensor, aqliy, hissiy, irodaviy xususiyatlar.*

Аннотация: *В статье рассматриваются дефекты речи дошкольников с задержкой психического развития, бедным словарным запасом, отсутствием грамматического строя и негативным влиянием на развитие мышления, а также влияние игры на устранение этих недостатков, организацию и совершенствование игры ребенка, идеи, влияющие на физическую активность и позволяющие ребенку расти физически и здоровым.*

Ключевые слова. *Психические, духовно-нравственные, физические, социальные, социальная жизнь, сенсорные, психические, эмоциональные, волевые особенности.*

Annotation: *The article discusses the speech defects of preschool children with mental retardation, poor vocabulary, lack of grammatical structure and negative impact on the development of thinking, and the impact of play on the elimination of these shortcomings, the organization and improvement of the child's play. ideas that influence physical activity and enable a child to grow physically and physically healthy.*

Keywords. *Mental, spiritual - moral, physical, social, social life, sensory, mental, emotional, volitional features.*

O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta'lim – tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish, fuqoralarni zamonaviy ilm – fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish benihoya katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunda respublikamizda rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning sog'lom tengqurlari qatori milliy ruhda tarbiyalanishlari, aqliy, ma'naviy – ahloqiy, jismoniy jihatdan kamol topishlari, jamiyatdagi ijtimoiy hayotga mustaqil, yetuk fuqorolik darajasida tayyor bo'lib yetishlari masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bu kabi





masalalarni davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmonlarda tanishishimiz mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF- 4947-sonli, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasida "Aholini ijtimoiy himoya qilish, nogiron va aholining boshqa ehtiyojmand toifalarini Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash"ni kuchaytirishga alohida e'tibor berilishi muhim ahamiyat kasb etadi.⁹⁹

Bundan tashqari 1-dekabr 2017-yilda Respublikamiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni imzolandi. Unga ko'ra, nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda teng sharoitlarni va ularni buzganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari Davlatimizning Imkoniyati cheklangan shaxslarga beriladigan ta'limnazarda tutib 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida "Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ta'lim muassasalari tajribali o'qituvchi-defektolog hamda psixologlar bilan taminlanadi" deb ta'lim sifatini yanada oshirishga katta e'tibor qaratilayotganligi buning bir isbotidir.¹⁰⁰[1-8]

O'zbekistonda yosh avlodni sog'lom, baquvvat, ruhiy va jismoniy tomondan barkamol inson qilib tarbiyalash muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Sog'lom avlodni tarbiyalash keng ko'lamlı harakat bo'lib, uning tarkibiga qator tabiiy omillar kiradi. Shular ichida sog'lom turmush tarzi alohida o'rin tutadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lum qilishicha, insoniyat sihat - salomatligining 50 % ni turmush tarziga 20 % ni ekologik holatga, 20 % ni nasl - nasabiga va 10 % i tibbiyot xizmatiga bog'liq ekan. Sog'lom turmush tarzini kundalik turmushni biologik va ijtimoiy qonunlar tashkil etib, salomatlikni saqlash hamda hamda mustahkamlashga qaratilgan turmush tarzidir.

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalashning umumiy yagona yo'nalishidagi vazifalari yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda aniqlashtirilib boriladi. Xozirgi kunda psixik va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ham jismoniy sog'lomlashtirish ishlar yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bola shaxsining shakllanish jarayoni insoniyatning ijtimoiy tarixiy tajribasini o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Odam shaxsining rivojlanishi bir qancha bosqichda o'tadi. Har bir navbatdagi bosqich avvalgisi bilan mustahkam bog'liq bo'ladi, avval erishilgan bosqich yanada yuqoriroq bosqichning tuzilishiga uzviy tarzda qo'shiladi. Har bir yosh davri yashalgan yosh, organizm biologik tizimlarining yetilish darajasi, ularning vazifalari, shu bilan birga odamning hayotiy tajribasi, bilimlarning hajmi, faoliyat turlari va mazmuni bilan belgilanadi. Yosh kattalashgan sari bolaning psixik faoliyati boyib boradi uning sensor,





aqliy, hissiy, irodaviy xususiyatlari orasidagi o'zaro aloqa o'zgaradi, bu esa rivojlanishning umumiy darajasiga, xulq-atvorning tartibga solishga ta'sir ko'rsatadi. (V.I.Loginova, P.G.Samorukova).

Nutqning rivojlanishi bilan shaxsning, shuningdek bracha psixik jarayonlarining shakllanishi chambarchas bog'liq.

Nutq buzilishlari deganda gapiruvchi shaxsning ma'lum til muhitida qabul qilingan, nutq faoliyati normal holda ishlayotgan psixofiziologik mexanizmlarining zaiflashuviga bog'liq holda til normalaridan chetlashuvi tushuniladi. Kommunikativ nazariya nuqtai nazaridan qaraganda esa, nutq buzilishlari bu bilish jarayoni, aloqa vositalarining buzilishidir. Shuning uchun har qanday madaniy jamiyatning burchi va vazifasi nutq kamchiliklariga ega bo'lgan jamiyat a'zolariga o'z vaqtida malakali yordam ko'rsatishdan iborat.

Aqli zaif bolalarda me'yorida rivojlanayotgan tengdoshlariga qaraganda nutqi kechikib shakllanadi va bir qator kamchiliklarga ega bo'ladi. So'zning tovush tahlili va sintezi buzilishidagi, talaffuz kamchiliklari, lug'atining qashshoqligi, grammatik qurilishining shakllanmaganligi aqli zaif bolaning nutqi va tafakkurining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hatto ayrim mustaqil jumlar paydo bo'lgan taqdirda ham bolalarning aloqasi qator fonetik va grammatik buzilishlar bilan tavsiflanadi.

Ayniqsa, og'zaki nutq buzilganligi tufayli shaxslararo munosabatga kirishish kechikadi. Aqli zaif bolalarda nutqning buzilish xususiyati yuqori nerv faoliyati va uning psixik shakllanishining o'ziga xosligi bilan aniqlanadi.. Aqli zaif bolalar og'zaki nutqini rivojlanishida oyinli texnologiyalarning o'rni katta hisoblanadi.

O'yin faoliyatiga e'tiborimizni qaratsak, o'yindan uzoq davrdan beri tarbiyalash va o'qitish uchun foydalanilgan. O'yin - maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning etakchi faoliyati bo'lib, ularning hayotida muhim ahamiyatga ega. Bu o'yinning bolani psixik rivojlanishiga ko'p qirrali ta'siri bilan bog'liq. O'yinda, ayniqsa didaktik o'yin orqali bolalar yangi bilimlar, tushunchalar, ko'nikma va malakalarni egallab oladilar. O'yin orqali inson muloqot qoidalarini egallab oladi. U bolada ahloqiy va irodaviy sifatlarni shakllantirishga imkon yaratadi. Me'yorida rivojlanayotgan bola haqida gapirganda bularning barchasi tabiiy, bolalikka xos bo'lib va hech qanday tarbiyaviy ta'sirlarni talab qilmaydi.

O'yin barcha psixik jarayonlarni va shaxsning shakllanishiga bolaning rivojlanishi uchun alohida sharoit yaratilganda va tizimli ravishda amalga oshirilayotgan korreksion-tarbiyaviy ishlar jarayoniga kiritilganda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha pedagogika tamoyillariga asosan tashkil etilgan didaktik o'yin ilk yoshdanoq rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalardagi nuqsonlarni, ayniqsa nutq nuqsonlarini korrektsiyalash va maktabga tayyorlash imkonini yaratadi.

O'yin, yoki didaktik o'yinlar to'g'ri tashkil etilganda har bir bolani ilk yoshdanoq aqliy, ahloqiy, jismoniy va estetik jihatdan rivojlanishi vazifalarini hal etadi. O'yinda dastlabki rivojlanish bosqichlaridayoq bolaning shaxsi shakllanadi, o'quv faoliyatida, mehnatda, odamlar bilan muloqotida kerak bo'ladigan sifatlar rivojlanadi. To'g'ri





shakllantirilgan o'yin intellektida buzilishlari bo'lgan bolalarning rivojlanishi uchun ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, erta ijtimoiylashuvi va keyinchalik jamiyatga integratsiyasi uchun muqobil imkoniyat yaratadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida aqli zaif bolalarning nutqini shakllantirish va o'stirishga qaratilgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarda didaktik o'yinlar orqali aqli zaif bolalar nutqining eng asosiy funksiyasi, ya'ni faoliyatni regulyatsiyalovchi funksiyasi, muloqot (kommunikativ, bilish) shakllanadi va rivojlanadi. Aqli zaif bolalarning nutqini o'stirishda didaktik o'yinlar ta'limiy (kattalar amalga oshiruvchi), korreksiyalovchi (bolaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi) xarakterga ega bo'ladi. Didaktik o'yinlar aqli zaif bolalarning nutqini rivojlantirishning barcha vazifalarini yechishda qo'llash mumkin.

Ular lug'atni aniqlashtiradi va kengaytiradi, so'zlarni hosil qilish va o'zgartirishda, bog'langan nutqni shakllantirishda qo'llash mumkin. Didaktik o'yin grammatik malakalarni mustahkamlashda samarali vosita hisoblanadi, o'tkazilishining hissiyligi, bolalarning qiziqishi orqali o'zlashtirilgan malakalarni mustahkamlash uchun ko'p marta takrorlashga imkon yaratadi.

Yuqorida bayon etilganlarning barchasi maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish muammosining dolzarbligini ko'rsatadi.

Nutqni rivojlantiruvchi didaktik o'yinlar hamda didaktik o'yinlar qatnashgan samarador mashg'ulot ishlanmalarni yaratish hozirgi zamon talabi bo'lganligi uchun dolzarb masala deb hisoblaymiz.

Tadqiq qilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasini ko'rib chiqadiganb'olsak, dastlabki yetti yil mobaynida bola rivojlanishning uch asosiy bosqichini, ya'ni, go'daklik, ilk va maktabgacha davrlarni boshdan kechirishi olimlar tomonidan o'rganilgan va adabiyotlarda yoritilgan. Har bir davr o'zicha muhim ahamiyatga ega bo'ladi, zero mazkur davr bosqichlarida yaratilgan shart-sharoitlar takrorlanmaydi.

Ilk va maktabgacha davrda bolaning o'sish va rivojlanish sur'atlari juda yuqori bo'ladi, uning jismoniy va psixik jihatlari o'sadi hamda shaxs sifatida rivojlanishini belgilaydi. Maktabgacha davrda shakllangan bilim va malakalar keyinchalik maktabda turli soha bilimlarini egallanishini ta'minlaydi. Maktabgacha davr insonning shaxs sifatida rivojlanishining dastlabki bosqichi bo'lib, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan shaxs ma'naviyatining asoslari shakllantiriladi.

L.S.Vigotskiy va D.B.Elkonin har bir psixologik yoshni quyidagi mezonlar bilan belgilashni taklif qiladi:

- rivojlanishning ijtimoiy holati, yoxud mazkur davrda bola va katta kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shakli;
- mazkur davrda bolaga xos bo'lgan asosiy faoliyat turi;
- asosiy psixik xususiyatlar va shaxsiy sifatlar;





- rivojlanishdagi krizis, ya'ni o'sish davrlarni bir - biridan ajratadigan, kattalar va bola o'rtasidagi munosabatlarning qayta qurilishida namoyon bo'ladigan, hal qiluvchi davr bo'lib hisoblanadi¹⁰¹.

Albatta yuqoridagi fikrlarga asoslanib biz olib borayotgan tadqiqotimizning quyidagi vazifalarini belgilab oldik:

- turli metodik adabiyotlardan muammoning o'rganilganlik holatini o'rganish, hamda maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar bog'langan nutqini rivojlantirishda o'yinli texnologiyadan foydalanish mavzusini dolzarbligini asoslash;

- ruhiy - psixologik jihatdan aqli zaif bolalarni o'yinga tayyorlash, bu bolalarda o'z - o'zini boshqarish va o'ziga bo'lgan ishonchni tarbiyalash;

- o'yinlar asosida bolalarni fikrlashga o'rgatish;

- bolalarda qat'iyatlilik ko'nikmalarini hosil qilish, topqirlik ko'nikmalarini shakllantirish, harakatchan va hozirjavob bo'lishga tayyorlash;

- bolalarni bo'sh vaqtida o'yinlarni to'g'ri tashkil qilishga yo'naltirish, o'yin jarayonida bolalarning jismoniy tayyorgarligi va yosh xususiyatlariga e'tibor berish;

- o'yin davomida birdamlik va hamdardlikka o'rgatish, jamoa bo'lib harakat qilish va jamoa manfaatiga hurmat ruhini shakllantirish.

Agarda yuqoridagi vazifalar amalga oshirilsa maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar harakatlarini o'yin faoliyati asosida rivojlantirishga doir fikr mulohazalar, o'yin turlari, usul va metodlari yanada mukammallashtirilsa, mazkur jarayon aniq qo'llashga doir o'yin va sport mashg'ulotlari, xalq milliy o'yinlaridan foydalanishning muayyan texnologiyasi ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq etilsa ko'zlangan natijaga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF- 4947-sonli, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasi

2. 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

3. Z. Nishanova, G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. 36 b.

4. Po'latova P.M. «Maxsus pedagogika (oligofrenopedagogika)» «O'qituvchi»- 2005 y.

¹⁰¹ Z. Nishanova, G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. 36 b.

